

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Yadroviy reaktorlar uchun yuqori xromli qotishmalarni sof tozalikda eritish va prokatlab olish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - raqamli modellashtirish, legirlash, termik ishlov berish, sof tozalash, fizik tajribalar va boshqalardan kompleks foydalangan holda yuqori xromli qotishmani nuqsonsiz eritish jarayoni ishlab chiqiladi; - qattiq qotishmadan issiq holda plastik deformatsiya usulida yadroviy reaktorlar uchun qoplama mahsulotlar ishlab chiqiladi; - qotishmaga termik ishlov berish rejimini optimallashtirish bilan yuqori mexanik va ekspluatatsion xossalarga chidamli mahsulot ishlab chiqiladi; - yadroviy reaktorlar uchun yuqori haroratdagi korroziyaga bardoshli qotishmadan mahsulotlar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.